



## SURXONDARYO MILLIY NASHLARINING LIBOSLARDA JOYLASHUVI VA TAXLILI.

**Raximqulova Sarvinoz Abdurashid qizi**

Termiz davlat universiteti, 190111. Termiz shahri,  
"Barkamol avlod" ko'chasi 43-uy.

E-mail: sarvinozraximqulova1990@gmail.com

**To'rayeva Aziza Xusniddinovna**

Termiz davlat universiteti, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18397699>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 24-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 28-yanvar 2026 yil

### KEYWORDS

*Bezak, naqsh, islamiy naqshlar, mato, etnografiya, ana'anaviy kiyim.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Surxondaryo milliy liboslari va ularda ishlatilgan bezak turlari o'rganildi. Taxlil qilishda ularning tikilishiga e'tibor qaratdik. bezaklarning har bir turi o'zgacha mano kasb qilib ularning to'qilishi, rang, shakli murakkabligi bilan ham ajralib turadi. Surxon vohasida bezaklarining murakkab bo'lishi ranglarning hilma hilligiga etibor qaratdik.*

Surxondaryo etnografiyasining turli jabhalarini ilmiy tarixiy jihatdan tadqiq etishda ma'lum o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, uni to'laroq yoritish imkonini beradi. Qadimgi tarixga ega Surxon vohasi, Davlatchiligimizning asoslarini shakllanishida ham muhim o'rin egallaydi [1].

Milliy ana'anaviy kiyimlar har bir xalqning moddiy ma'naviyatning ajralmas bir qismidir, chunki kiyimlar millatning milliy diniy e'tiqodi, urf-odatlar kabi jihatlari o'z aksini topgan. Voxa aholisining ana'anaviy liboslari asrlar davomida shakllanib kelgan.

Kostyum – bu murakkab tashkiliy tuzilma bo'lib, bir qancha elementlardan, masalan konstruktiv chiziqlar, rang va mato fakturasi, dekorativ bezak detallari va turli taqinchoqlardan tarkib topgan. Bu elementlarning o'zaro mos va hamohangligi estetik jihatdan yaxlit obraz(siyomo)ning yaratilishi va insonning tashqi muhit bilan ko'p qirrali bog'liqligida namoyon bo'ladi.

Surxondaryo ayollari liboslarida ana'anaviy dekorativ bezak elementlari sifatida kashtachilik, bo'yin taqinchog'i, belbog', ziraklar, bilak uzuklar, munchoqli bezaklar va moshina (ziy choklar) choklari kiradi.

Dekorativ bezaklar san'at tarixida va madaniy antropologiyada muhim rol o'ynaganiga qaramay, ularning genezisi, evolyutsiyasi, badiiy va semiotik funktsiyalariga e'tibor aniq yetarli emasligini tan olish kerak.

Kashtachilik san'ati barcha millatlarda mavjud arxeologik topilmalarda o'z aksini topilgan. Asrlar mobaynida toshlardan, suyaklardan tayyorlangan bigizlar yordamida to'qish, shuningdek mato to'qish, bo'yash va boshqa ishlar amalga oshirilgan. Kashtachilik mahsulotining eng qadimiy nusxalari saqlanmagan. Qadimiy manbalarda ko'rsatilganidek, tarixiy kashtalarda jang lavhalari aks ettirilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasi ixtiro bo'lganidan so'ng, sanoat rivojlangan mamlakatlarda kashtachilik korxonalari vujudga kela boshladi va ana'anaviy

kashtachilik bir oz bo'lsada inqirozga uchradi [33; 240-b]. Milliy kashtachiligimiz boshqa qardosh xalqlar kashtachilik san'ati bilan uyg'unlashdi va takomillashdi. O'zbek kashtalarida ko'p uchraydigan xitoy, rus, afg'on qozoq hamda qirg'iz, tojik usul va uslublarini ko'ramiz. Har bir millatning o'ziga hos keng ko'p qo'llaydigan islmiy naqishlar bo'ladi. Ammo o'zimizning milliy kashtalarimizda o'simliksimon, geometrik hamda gul va jonzodlar naqshlari ko'p uchrasa, rus kashtachilikda geometrik naqshlar, o'simliksimon shakllar, gul va mevalar ko'p tasvirlanadi. 1- rasm.



**1 - rasm. XIX- XX arsdagi Surxondaryo kashtali ayollar ko'ylagi.**

O'zi oddiy ko'ringani bilan, aslida murakkab va jozibali texnologiyalar saqlanib kelinayotganligi Surxon kashtachilik maktabi an'analari bugungi kunda ham gurkirab yashnayotganligidan dalolatdir. San'atning har bir yo'nalishi insondan qalb go'zalligini, nafislikni talab qiladi. Amaliy bezak san'atining ham qadimiy va o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lgan turlaridan biri kashtachilikdir.

Respublikamizda mavjud kashtachilik maktablari juda boy tarixiy-ijtimoiy, falsafiy hamda amaliy san'atning rang-barang ko'rinishi bilan alohida o'rin tutadi. Kashtachilik maktablari ichida Nurota kashtachilikgi o'zining kompozision tuzilishi va yorqin koloriti bilan e'tiborga molik bo'lib kelgan. Nurotada ham maishiy hayotda bevosita qo'llanadigan turli shakldagi kashtachilik buyumlari: so'zana, nimso'zana, zardevor, joypo'sh, belbog', peshonaband, shonahalta, oyna-halta, qalamdon-qopi kabi ko'pgina buyumlar keng tarqalgan. Bularning har biri ishlatilishiga ko'ra naqshlar bilan bezatilgan. Nurota an'anaviy kashtachilikda shoh, novda, barg singarilar qo'shimcha unsurlar sifatida kiritilsa, asosiy mohiyatni ochib berish, aynan gullarga yuklatiladi. Guli safsar, guli hafrang, guli lola, chinnigul, mug'chagul, xibcha baxmal kabi gulli naqshlar ishlatiladi.

So'zana va liboslarga tushirilgan bunday tasvirlar alohida ma'noga ega.

Masalan:

Anor — farzand, baxt, serfarzandlik, baraka, rizq mano'larini anglatgan. belgisini anglatga,

Qalampir — yomon ko'zlardan asraguvchi, yovuz kuch, omadsizlikdan, xavf-xatardan asrash tumori sifatida foydalanilgan,

Bodom — rizq-ro'z,

Ochilgan gullar — muhabbat,

Shoxchali gullar majmuasi — farovon hayot, qushlar esa baxt-omad belgisidir.

Surxondaryoning ayollari qizil, olcha ranglarni juda yaxshi ko'rganlar. Kiyim uchun yo'l-yo'l, sidirg'a va yirik gulli abrli gazlamalarga ham katta e'tibor berilgan. Har bir naqsh o'zining ma'nosi va joylanishiga qarab buyumni qaysi kashtado'z tomonidan tikilganligi bilingan.

Me'moriy obidalar bilan bir qatorda liboslar ham boshqa vohalardan bir-biridan ajralib turadi. Liboslarning ranglari va kashtalari turlari juda hilma - hil bo'lib ularda ishlatilgan kashta choklari ham bir - biridan farq qiladi. Kashtalar mulina iplar, zar iplar va ipak hamda paxta iplardan tikilgan. Iplarni ayyollarning o'zlari eshib rang berishgan. Iplarni ranglashda tabiatdagi o'simliklaridan foydalanib bo'yalgan shulardan sariq rang anor po'stlog'i va ildizlar, yashil o'sma o'simligi, qizil rang lavlagi sabzavotidan ishlatilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki voha kiyimlarini tadqiq etish jarayonida asosiy bezak elementlari bo'yicha manbalarning kamligini hisobga olib, vohaning iqlimiga va mintalitetiga mos milliy bezakli zamonaviy kiyimlarni yaratish muhim hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Полищук О.А., Алибекова М.И. Интеграция народных традиций в современное решение аксессуаров в этническом стиле. Инновационное развитие легкой и текстильной промышленности" (ИНТЕКС-2018):Сборник материалов Международной научной конференции, Москва, 17–19 апреля 2018 года. Том Част 2. – М.ФГБОУ ВО«РГУ им. А.Н. Косыгина», 2018. – С. 92-95.
2. U.S Raxmatullayeva, S.A Raximqulova, Surxondaryo kostyumi va ularning ramziy ma'nolari // Тенденции развития текстильной промышленности: проблемы и пути решения 23-24 апрел 2021 yil (218-220 betlar).
3. Raxmatullayeva U., Raximqulova S. Surkhandarya Jewyelery And Thyeir Symbols //INTERNATIONAL JOURNAL FOR INNOVATIVE YENGINEYERING AND MANAGEMENT RESEARCH, ISSN 2456-5083 VOL-09 ISSUYe-11 2020
4. Rakhimkulova S., Baymurova N., Xulkaliyeva G., Muḡaamadiyeva N., Boriyeva M. Creation Of Metḡods Of Making National Jewyelry In Surkḡandarya Costume // Journal of Pḡarmacyeutical Negative Resuls DOI: 10.47750/pnr.2022.13.S07.493 Volume 13 | Special Issue 7, 2022.
- 5.Sodiqova Nafisa. O'zbek milliy kiyimlari. XIX -XX asrlar T.: Sharq 2003 y.150-b
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) y.